Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические вопросы отказа от права собственности на движимые вещи. Исследуются правовая природа отказа от права собственности как односторонней сделки, его осуществление посредством конклюдентных действий, а также критерии установления воли собственника. На основе законодательства Республики Узбекистан, судебной практики, источников римского и исламского права рассматривается правовая судьба брошенных движимых вещей. Проведён также сравнительный анализ с законодательством Российской Федерации, по результатам которого разработаны предложения по совершенствованию в национальном законодательстве механизмов возникновения и прекращения права собственности на брошенные движимые вещи. По результатам исследования обоснована целесообразность дифференциации порядка присвоения движимых вещей в зависимости от их стоимости, а также признания завладения брошенной вещью односторонней сделкой, влекущей возникновение права собственности.

Ключевые слова: право собственности, движимая вещь, отказ от права собственности, конклюдентные действия, односторонняя сделка, бесхозяйная вещь, дереликция, прекращение права собственности

CERTAIN ISSUES OF RENUNCIATION OF OWNERSHIP RIGHTS TO MOVABLE PROPERTY

Khodjiev Yunus Mukhitdinovich,

Acting Associate Professor of the Department of Civil Law,
Tashkent State University of Law,
Candidate of Legal Sciences

Abstract. *This article analyses the theoretical and practical issues concerning the renunciation of ownership of movable property. It examines the legal nature of the renunciation of ownership as a unilateral transaction, its implementation through conclusive conduct, and the criteria for determining the owner's intention. Drawing on the legislation and judicial practice of the Republic of Uzbekistan, as well as sources of Roman law and Islamic law, the article explores the legal status and subsequent disposition of abandoned movable property. A comparative analysis of the legislation of the Russian Federation is also conducted, and proposals are developed for improving the mechanisms governing the acquisition and termination of ownership of abandoned movable property under national legislation. The study concludes that it is appropriate to differentiate the procedure for appropriating movable property according to its value and to recognize the taking into possession of abandoned property as a unilateral transaction giving rise to ownership rights.*

Keywords: *right of ownership, movable property, waiver of ownership, concluding actions, unilateral agreement, ownerless property, dereliction, termination of ownership*

Kirish

Mulk huquqi fuqarolik huquqining eng muhim institutlaridan biri bo'lib, uning vujudga kelishi, amalga oshirilishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq munosabatlar iqtisodiy muomalaning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy fuqarolik muomalasida mulkdorning ko'char ashyolarga bo'lgan huquqidan voz kechishi bilan bog'liq holatlar keng tarqalgan bo'lib, bunday munosabatlar chiqindilarni tashlab yuborish, eski yoki foydalanishga yaroqsiz ashyolarni qoldirish, mulkka nisbatan qiziqishning yo'qolishi kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, mulk huquqidan voz kechishning huquqiy oqibatlari, ayniqsa, tashlab ketilgan ko'char ashyolarning keyingi huquqiy taqdiri masalasi milliy qonunchilikda yetarlicha aniq tartibga solinmagan.

Fuqarolik huquqi nazariyasida mulk huquqidan voz kechish bir tomonlama bitim sifatida qaraladi va u ko'p hollarda konklyudent harakatlar orqali amalga oshiriladi. Bunday harakatlarning huquqiy mazmunini aniqlash, mulkdor irodasini belgilash hamda tashlab ketilgan ashyolarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo'lish asoslarini tahlil qilish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy davlatlar qonunchiligida, jumladan, Rossiya Federatsiyasi fuqarolik qonunchiligida mazkur masalaga doir maxsus qoidalarining mavjudligi milliy huquq tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqidan voz kechish amaliyotda juda keng tarqalgan bo'lib, u asosan chiqindilarni tashlab yuborish, eski buyumlardan foydalanishni to'xtatish yoki muayyan ashyoni egasiz holatda qoldirish shaklida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikda bunday ashyolarning keyingi huquqiy taqdiri yetarlicha aniq tartibga solinmaganligi mazkur masalaning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Asosiy qism

Ko'char ashyolardan voz kechish holati juda keng tarqalgan. Ko'char ashyolardan voz kechishga doir bir tomonlama bitimlar amalda tez-tez uchraydi (masalan, chiqindilarni, eski buyumlarni tashlab yuborish va h.k.).

Ko'char ashyolardan voz kechish – o'sha voz kechish haqida e'lon qilish yoki sobiq mulkdorning ushbu ashyoni mulk qilib saqlash, undan foydalanish va tasarruf etishdan mutlaqo voz kechish niyatida amalga oshirgan harakatlari bilan ifodalanadigan xatti-harakatlar.

Ko'char ashyolarga bo'lgan mulk huquqidan voz kechish odatda bir tomonlama bitim sifatida baholanadi. V. Belovning (2024) fikricha, bir tomonlama bitimning asosiy xususiyati shundaki, huquqiy oqibatlarning yuzaga kelishi uchun bir shaxs irodasining ifoda etilishi kifoya qiladi. Mulk huquqidan voz kechishda ham huquqiy natija mulkdorning bir tomonlama xohish-irodasiga asoslanadi.

Ko'p hollarda voz kechish sukut saqlash (konklyudent) harakatlari orqali amalga oshiriladi.

Konklyudent harakatlar deganda, odatda shaxsning bitim tuzish niyati uning qilgan harakatlari mazmunidan ochiq namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari tushuniladi. Bu holda esa gap bevosita emas, balki bilvosita shaxsning xatti-harakatidan uning bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turishi haqida boradi.

L. Ennekserusning (1950) ta'kidlashicha, xohish-irodani izhor etish majburiy tarzda aynan ushbu irodani to'g'ridan to'g'ri ifoda etishga qaratilgan xatti-harakatlarda (so'zlarda yoki amallarda) namoyon bo'lishi shart emas. Shaxsning irodasi muayyan so'zlar yoki harakatlar orqali, ularning mazmunidan bitim tuzishga qaratilgan iroda mavjudligi xulosa qilinishi mumkin bo'lgan hollarda ham ifodalanishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar konklyudent harakatlar (facta concludentia) deb ataladi.

Y. Suxanovning ta'kidlashicha, mulk huquqidan voz kechish mulk huquqini bekor qilishning mustaqil huquqiy asosi bo'lib, uning amalga oshirilishi mulkdorning ashyoga nisbatan huquqiy hukmronlikni saqlab qolish istagi mavjud emasligini anglatadi (Sukhanov, 2023). Shu sababli mulk huquqidan voz kechish nafaqat mulkdor irodasining namoyon bo'lishi, balki keyinchalik mazkur ashyoning huquqiy taqdirini belgilashga ta'sir etuvchi yuridik fakt sifatida ham namoyon bo'ladi.

Amaliyotda mulk huquqidan voz kechish ko'pincha konklyudent harakatlar orqali amalga oshiriladi. B. Gongalo (2022) qayd etganidek, konklyudent harakatlar shaxsning huquqiy natijaga erishishga qaratilgan irodasini bevosita emas, balki uning tashqi xatti-harakatlari orqali anglash imkonini beradi. Shu ma'noda, ashyoni tashlab ketish, chiqindi sifatida chiqarib tashlash yoki undan butunlay voz kechish harakatlari mulkdorning irodasini obyektivlashtiruvchi, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar hisoblanadi.

Bevosita sukut saqlash (konklyudent) harakatlarni tavsiflashda xohish-irodaning o'ziga emas, balki shaxs tomonidan bajarilgan harakatlarda aks etgan irodaning mazmuni haqida chiqariladigan xulosaga taalluqlidir. U shunga ishora qilganki, mazmunsiz fikr bizning tomonimizdan na to'liq qabul qilinishi, na idrok etilishi mumkin.

Shu bois irodaning og'zaki, yozma shaklda yoki konklyudent harakatlar orqali ifodalanishi barcha hollarda bizga muayyan xulosalarga kelishni taqozo qiladi. Faqatgina irodaning til vositalari (og'zaki yoki yozma) orqali bayon etilishida bunday xulosani chiqarish ancha oson, zero til shakli iroda mazmunini talqin qilishdagi turlicha anglash ehtimolini minimal darajaga tushiradi. Ammo iroda muayyan harakat orqali ifodalan-ganda, biz bu harakatni bilvosita tarzda baholashga majbur bo'lamiz. Bu holda harakatning o'zi boshqa holatlar bilan birgalikda, xususan, uning bajarilish sharoiti, joyi, vaqti va boshqa omillar bilan ko'rib chiqilishi lozim. Faqat shundagina shaxs irodasining mazmunini to'liq ochish imkoni paydo bo'ladi.

Oxirgi nuqtayi nazarni to'g'ri deb baholash mumkin. Chunki konklyudent harakatlarni amalga oshirayotgan shaxs muayyan huquqiy oqibat-larni nazarda tutadi va o'z irodasini to'g'ridan to'g'ri ifoda etadi, ammo bu irodaning mazmunini qabul qiluvchi tomon tomonidan aniqlash uchun ma'lum intellektual sa'y-harakatlarni talab qiladi (ya'ni bajarilgan konklyudent harakatlarni tahlil qilish, zarurat bo'lsa, shakllangan amaliyot yoki fuqarolik muomalasi odatlarini inobatga olish).

Eslatib o'tish joizki, FKning 105-moddasi 2-qismiga muvofiq, sukut saqlash orqali qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzilishi mumkin.

Biroq har qanday tashlab ketilgan ashyo ham mulk huquqidan voz kechilgan deb baholanishi mumkin emas. A. Rybalovning (2017) ta'kidlaganidek, mulk huquqidan voz kechish faktini aniqlashda mulkdorning haqiqiy irodasi muhim ahamiyatga ega. Agar ashyo vaqtincha qoldirilgan bo'lsa yoki mulkdor uni qaytarib olish niyatini saqlab qolgan bo'lsa, bunday holat mulk huquqidan voz kechish sifatida baholanmasligi lozim.

Avval ta'kidlanganidek, ko'char ashyodan voz kechishning mulkdor tomonidan konklyudent harakatlar orqali amalga oshirilishi odatda turlicha ma'no keltirib chiqarmaydi. Ashyoni tashlab yuborish yoki uni joyida qoldirib ketish kabi harakatlar boshqa shaxslar uchun ham mulkdorning niyatini yetarlicha ravshan aks ettiradi. Qoida tariqasida, bunday hollarda alohida og'zaki tasdiqqa ehtiyoj ham bo'lmaydi.

Sud amaliyoti ko'rsatishicha, ayrim hollarda mulkdorning irodasini aniqlash murakkab

masalaga aylanadi. Xususan, muayyan iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulk bo'yicha mulk huquqidan voz kechish fakti har doim ham aniq ko'rinishda namoyon bo'lmaydi. Mulkdor tomonidan ashyoni tashlab ketish holati har doim ham bir xil talqin etilmasligi mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Avvalo, bu masala muayyan qiymatga ega bo'lgan mol-mulkka taalluqli bo'lib, sud amaliyoti ko'rsatganidek, mulkdorning bunday mol-mulkka bo'lgan mulk huquqidan voz kechish niyati ravshan ko'rinishi kerak va agar mulk huquqini qo'lga kiritish maqsadida sudga murojaat qilinsa, bu niyat isbotlanishi talab qilinadi.

2023-yil 7-noyabr kuni Fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudining hal qiluv qaroriga asosan, "AUDI A6" rusumli yengil avtotransport vositasi egasiz ashyo sifatida davlat mulkiga o'tkazilgan. Ish holatlariga ko'ra, ushbu avtotransport vositasi Xovos tuman IIB xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbir davomida aniqlangan. Qozog'iston Respublikasi fuqarosi Salykbayev Askarbek "AUDI A6" rusumli, M475TK50 davlat raqam belgili avtotransport vositasini 2019-yil 21-noyabr kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Bojxona boshqarmasining "Dout-ata" chegara bojxona posti orqali Qozog'istondan O'zbekistonga 350004/21.11.2019/017546-sonli "Avtotransport vositasini qaytarib olib chiqish to'g'risida majburiyatnoma"ga asosan olib kirgan va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketishi belgilangan bo'lsa-da, olib chiqib ketilmagan.

Bundan tashqari, qarorda BBning ishonchli vakili AA sud majlisida arizani quvvatlab, o'z tushuntirishida Qozog'iston Respublikasi fuqarosi Salykbayev Askarbek tomonidan 2019-yil 21-noyabr kuni rasmiylashtirib berilgan ishonchnoma asosida "AUDI A6" rusumli avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasiga boshqarib olib kiritilganligini ko'rsatgan.

Xo'sh, ushbu holatda mulkdor avtotransport vositasiga bo'lgan mulk huquqidan voz kechib, uni tashlab ketganmi? Sud tomonidan ushbu holat o'rganilmaganligi ko'rinadi. Chunki qarorda ko'rsatilishicha, "AUDI A6" rusumli yengil avtotransport vositasi Xovos tumani Qayirma MFY, Bunyod ko'chasi, 11-uyda turganligi ma'lum bo'lgan.

Fuqarolik kodeksining 191-moddasiga muvofiq, egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan

ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Demak, mulkdor aniq bo'lgan holatlarda uning huquqidan voz kechish irodasi ishonchli ravishda aniqlanmasdan turib ashyoni egasiz deb topish huquqiy aniqlik prinsipiga zid kelishi mumkin. Bu holatda sud qarz evaziga mulkka undiruv qaratish masalasini hal etishi lozim edi.

R.S. Bevezkenov (2018) fikricha, egasiz ashyo maqomini berish uchun ashyoning tashlab ketilganligi emas, balki mulkdorning unga nisbatan huquqdan voz kechish niyati aniq isbotlangan bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ashyoning muayyan hududda uzoq vaqt turishi o'z-o'zidan mulk huquqidan voz kechishni anglatmaydi.

Shu jihatdan Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidagi tajriba e'tiborga molik hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi 226-moddasining 1-bandiga muvofiq, mulkdor tomonidan tashlab yuborilgan yoki mulk huquqidan voz kechish maqsadida boshqa tarzda qoldirilgan ko'char ashyolar ushbu moddaning 2-bandida nazarda tutilgan tartibda boshqa shaxs tomonidan o'z mulkiga aylantirilishi mumkin. Shu tariqa, mulkdor tomonidan konklyudent harakatlar orqali voz kechilgan ko'char mol-mulkning keyingi huquqiy taqdiri belgilab beriladi. T. Abova tahriridagi ilmiy-amaliy sharhda qayd etilishicha, mazkur norma tashlab ketilgan ashyolarning huquqiy taqdirini aniq belgilab berish orqali huquqiy muomalaning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi (Abova, 2021).

Bizning Fuqarolik kodeksimizda bunday norma mavjud emas. Demak, mulkdor tomonidan tashlab yuborilgan yoki mulk huquqidan voz kechish maqsadida boshqa tarzda qoldirilgan ko'char ashyolar boshqa shaxs tomonidan o'z mulkiga aylantirilishi mumkinligi to'g'risida Fuqarolik kodeksiga alohida norma kiritish maqsadga muvofiq. Chunki hayotda bu bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar yetarli darajada ko'p uchraydi. Bizning fikrimizcha, milliy qonunchilikda ham tashlab ketilgan ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi mexanizmlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, mulkdor tomonidan konklyudent harakatlar orqali voz kechilgan ko'char ashyolarning keyingi huquqiy taqdiri belgilab beriladi. Bunda egasi tashlab ketgan ashyolarga nisbatan mulk huquqini vujudga keltirish tartibi

ashyoning qiymatiga qarab tabaqalashtirilgan bo'lishi lozim. Jumladan:

1. Birinchi guruhga qiymati mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining besh baravariga teng summadan kam bo'lgan arzonbaho ashyolar yoki chiqindilar (tashlab ketilgan metall parchalari, yaroqsiz mahsulotlar, metallarga ishlov berilganda hosil bo'ladigan shlaklar, foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida hosil bo'ladigan ag'darmalar va oqoqalar, ishlab chiqarish chiqindilari hamda boshqa chiqindilar) kiradi.

Bunday ashyolar joylashgan yer uchastkasi, suv havzasi yoki boshqa obyekt mulkdori, egallovchisi yoki foydalanuvchisi ularni o'zlashtirish niyatini tasdiqlovchi faktik harakatlarni amalga oshirish (masalan, ulardan foydalanishni boshlash) orqali mazkur ashyolarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritishi mumkin. Ko'rsatilgan ashyolarga nisbatan mulk huquqi arzonbaho ashyo mulkdorining undan voz kechishi yoki tashlab ketilgan ashyo joylashgan yer uchastkasi, suv obyekti yoki boshqa obyekt mulkdori, egallovchisi yoki foydalanuvchisi ushbu mol-mulkdan foydalanishga kirishgan yoxud ashyoni o'z mulkiga aylantirish niyatini ko'rsatuvchi boshqa harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab (masalan, ashyoni egallab olish yoki undan foydalanish orqali) vujudga keladi.

R. Bevenko (2017) ta'kidlaganidek, bunday holatlarda mulk huquqining vujudga kelishi uchun ashyoni o'zlashtirishga qaratilgan faktik harakatning o'zi yetarli hisoblanadi. Masalan, chiqindilardan ishlab chiqarishda foydalanish yoki tashlab ketilgan metall parchalarini yig'ib olish shunday harakatlar jumlasiga kiradi. Tashlab ketilgan ashyolarni o'zlashtirish niyatini ifodalovchi faktik harakatlar mulk huquqini qo'lga kiritishga qaratilgan bir tomonlama bitim sifatida baholanishi lozim. Demak, mazkur ashyolarga nisbatan mulk huquqining bekor bo'lishi uchun ikki bir tomonlama bitimdan iborat bo'lgan yuridik tarkib mavjud bo'lishi talab etiladi. Birinchisi – ashyo mulkdorining undan voz kechishi, ikkinchisi esa tashlab ketilgan ashyo joylashgan yer uchastkasi, suv obyekti yoki boshqa obyekt mulkdori, egallovchisi yoxud foydalanuvchisi tomonidan ushbu ashyoni o'z mulkiga aylantirishga qaratilgan harakatlarning amalga oshirilishidir.

2. FKning 191-moddasiga ko'ra, agar bu hol topilma to'g'risidagi, qarovsiz hayvonlar va xazi-

na to'g'risidagi qoidalarda rad etilmagan bo'lsa, egasiz ko'char ashyolarga egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida egalik qilish mumkin. Bizning qonunchiligimizda tashlab ketilgan ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqini egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritish mumkin. Qiymati yuqori bo'lgan ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish masalasi qonunchilikda nazarda tutilmagan.

Rossiya Federatsiyasi FK 226-moddasiga ko'ra esa tashlab ketilgan ashyolar ularni egallab olgan shaxsning mulkiga ushbu shaxsning arizasiga asosan sud tomonidan egasiz deb topilgan taqdirda o'tadi. Demak, qiymati nisbatan yuqori bo'lgan tashlab ketilgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish uchun sudning tegishli qarori talab etiladi. Qonun egasiz deb topishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini cheklamaydi.

Boshqa tashlab ketilgan ashyolar yangi egallovchining arizasiga asosan sud tomonidan ularni egasiz deb topish haqida qabul qilingan qaror asosida uning mulkiga o'tishi mumkin. Ko'char ashyoni egasiz deb topish to'g'risidagi ariza ushbu ashyoni boshqarish yoki egallashni o'z zimmasiga olgan jismoniy shaxsning yashash joyidagi yoki yuridik shaxsning joylashgan yeridagi sudga beriladi. Arizada qaysi ashyo egasiz deb topilishi lozimligi, uning asosiy farqlovchi belgilari ko'rsatilishi, shuningdek mulkdor mazkur ashyoga nisbatan mulk huquqini saqlab qolish niyatisiz uni tashlab ketganligini tasdiqlovchi dalillar hamda arizachi ushbu ashyoga egalik qilishni boshlaganligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi shart (Chigir, 2007).

Biroq bunday shaxslar, avvalo, ushbu ashyoni o'z egalligiga qabul qilgan bo'lishlari lozim. Shu bilan birga, mazkur mol-mulknı tashlab ketgan mulkdor sud qarori chiqarilgunga qadar unga nisbatan mulk huquqini saqlab qoladi va uni yana o'z egalligiga qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

Boshqa tashlab ketilgan ashyolarga nisbatan mulk huquqining bekor bo'lish asosi egasiz tashlab ketilgan ashyoning uchinchi shaxs tomonidan egallab olinishi hisoblanadi. Bunda mulk huquqini bekor qilish usuli sifatida sud tomonidan ushbu ashyoning egasiz deb topilishi kabi yuridik fakt namoyon bo'ladi. Egallab olish mulknı o'z mulki sifatida qo'lga kiritishga qaratilgan bir

tomonlama huquqiy harakat (bir tomonlama bitim) hisoblanadi. Demak, boshqa turdagi tashlab ketilgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqi bir tomonlama bitim hisoblangan uni egallab olish hamda ashyoni egasiz deb topish haqida qonuniy kuchga kirgan sud qarori mavjud bo'lgan taqdirda, ya'ni ushbu yuridik tarkibning yig'indisi asosida bekor bo'ladi.

Mulk huquqidan voz kechish yangilik hisoblanmaydi va u hali Rim huquqidayoq ma'lum bo'lgan. Xususan, tashlab ketilgan ashyolar (*res derelictae*) deganda "o'zining avvalgi egasi uchun ahamiyatini yo'qotganligi sababli tashlab qo'yilgan mol-mulk, masalan, singan, buzilgan va shu kabi ashyolar" tushunilgan (Ivanov, 2015), shuningdek "mulkdor o'z mulk huquqini bekor qilish niyati bilan voz kechgan, ya'ni tashlab yuborgan ashyolar (*res derelictae*)" ham nazarda tutilgan (Maksimenko & Barinova, 2006).

Dereliksiya (mulkdan ixtiyoriy voz kechish) ning o'zi mulk huquqining bekor bo'lishi uchun asos hisoblangan (Maksimov & Zhelonkin, 2019). Rim huquqida mulk huquqidan voz kechishning huquqiy oqibati sifatida tashlab ketilgan ashyolarni okkupatsiya qilish, ya'ni ularni egallab olish imkoniyati nazarda tutilgan (Meyer, 2003).

D. Meyer (2003) mulk huquqining bekor bo'lish asoslarini tahlil qilib, ashyoni tashlab ketish (*derelictio*) mulk huquqidan voz kechishning bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, huquqdan voz kechish bir tomonlama yuridik harakat sifatida amalga oshirilishi mumkin yoki ikki tomonlama bitim (*shartnoma*) mazmunida ifodalanishi mumkin.

K. Pobedonostsev (2002) mulk huquqining bekor bo'lish asoslarini tahlil qilar ekan, mulk huquqini yo'qotish (*begonalashtirish*) usullari orasida mulkni bir tomonlama tark etish – *dereliksiyani* (*derelictio*) ixtiyoriy *begonalashtirish*ning mustaqil shakli sifatida e'tirof etadi. Muallifning ta'kidlashicha, bunday harakat egalik qilish mudati institutining vujudga kelishi va amal qilishi uchun huquqiy zamin yaratuvchi holatlardan biri hisoblanadi.

Mulk huquqidan voz kechish va fuqarolik huquqlarini amalga oshirishdan voz kechish huquqiy tabiati jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Ularning asosiy farqlovchi belgisi huquq egasi irodasining maqsadida hamda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarda ifodalanadi. Dereliksiya holatida mulkdorning irodasi mulk huquqining o'zini bekor qilishga qaratilgan bo'lib, uning natijasida mazkur huquq tugaydi. Fuqarolik huquqini amalga oshirishdan voz kechishda esa subyektiv huquq saqlanib qoladi, ammo uni amalga oshirish vakolatidan foydalanilmaydi.

Xulosa

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'char ashyolarga bo'lgan mulk huquqidan voz kechish mustaqil huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan bir tomonlama bitim hisoblanadi va amaliyotda asosan konklyudent harakatlar orqali amalga oshiriladi. Bunda mulkdorning ashyoni tashlab ketishi yoki unga nisbatan mulkiy vakolatlarni amalga oshirishdan voz kechishi uning mulk huquqidan voz kechish irodasini ifodalaydi. Shu bilan birga, har bir holatda mulkdorning haqiqiy irodasi va harakatlarining huquqiy mazmuni aniq baholanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida tashlab ketilgan ko'char ashyolarning keyingi huquqiy taqdirini bevosita tartibga soluvchi maxsus normalarning mavjud emasligi huquqni qo'llash amaliyotida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu munosabat bilan ko'char ashyolarning qiymatiga qarab ularni o'zlashtirish tartibini tabaqalashtirish, arzonbaho ashyolar va chiqindilarga nisbatan soddalashtirilgan tartibni, qiymati yuqori bo'lgan ashyolarga nisbatan esa sud nazoratiga asoslangan mexanizmni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, tashlab ketilgan ashyoni o'zlashtirishga qaratilgan harakatlarni ham mulk huquqini vujudga keltiruvchi bir tomonlama bitim sifatida e'tirof etish nazariy va amaliy jihatdan asoslidir. Natijada mulk huquqining bekor bo'lishi va yangi mulk huquqining vujudga kelishi o'zaro bog'liq yuridik tarkib sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuvlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish ko'char ashyolar bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish, huquqiy aniqlikni ta'minlash hamda mulk huquqi institutini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

- Abova, T. Ye. (Ed.). (2021). *Grazhdanskiy kodeks RF (chast pervaya): nauchno-prakticheskiy kommentariy* [Civil Code of the Russian Federation (part one): scientific and practical commentary]. Yurayt.
- Belov, V. A. (2024). *Grazhdanskoye pravo*. [Civil law]. Yurayt.
- Bevzenko, R. S. (2017). Kommentariy k statye 226 GK RF [Commentary on Article 226 of the Civil Code of the Russian Federation]. *Bulletin of Civil Law*, 17(6), 65–72.
- Bevzenko, R. S. (2018). *Kommentariy k polozheniyam GK RF o prave sobstvennosti i inyx veshchnykh pravakh* [Commentary on the provisions of the Civil Code of the Russian Federation on property rights and other real rights]. M-Logos.
- Chigir, V. F. (Ed.). (2007). *Grazhdanskoye pravo* [Civil law] (2nd ed.). Amalfeya.
- Ennekserus, L. (1950). *Kurs germanskogo grazhdanskogo prava* [Course of German civil law]. Inostrannaya Literatura.
- Gongalo, B. M. (2022). *Grazhdanskoye pravo* [Civil law]. Statut.
- Ivanov, A. A. (2015). *Rimskoye pravo: Osnovnye ponyatiya, zakony i iski, personalii i sententsii: slovar-spravochnik* [Roman law: Basic concepts, laws and claims, personalities and maxims: a reference dictionary] (2nd ed.). Flinta.
- Maksimenko, S. T., & Barinova, M. N. (2006). *Rimskoye chastnoye pravo* [Roman private law]. Yustitsinform.
- Maksimov, V. A., & Zhelonkin, S. S. (2019). *Rimskoye pravo* [Roman law]. Yustitsinform.
- Meyer, D. I. (2003). *Russkoye grazhdanskoye pravo* [Russian civil law]. ConsultantPlus.
- Novitskiy, I. B., & Pereterskiy, I. S. (Eds.). (2020). *Rimskoye chastnoye pravo* [Roman private law: Textbook]. Yustitsinform.
- Pobedonostsev, K. P. (2002). *Kurs grazhdanskogo prava. Pervaya chast: Votchinnyye prava* [Course of civil law. Part one: Patrimonial rights]. Statut.
- Rybalov, A. O. (2017). *Pravo sobstvennosti: aktualnye problemy teorii* [Right of ownership: current problems of theory]. Statut.
- Sukhanov, Ye. A. (2023). *Grazhdanskoye pravo* [Civil law]. Statut.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 4-SON

VOLUME 6 / ISSUE 4 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.4>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>